



YOSH AVLODNING MUHOFAZASI

Yo 1doshxodjayeva Hojiyahon

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Instituti talabasi

Alloh taolo Odam bolalarini O'zining eng aziz maxluqlaridan qildi va muqadas Islom dini ularni yer yuzida tinch va osoyishta yashashlari uchun ularga Shariati Islomiyani nozil qili, unda quyidagi besh masalani himoya qilishga buyurdi: jonini, molini, aqlini, dinini va naslini. Bu besh unsur مقاصد الشريعة الإسلامية ostida jamlanadi va ular insonlarning xos haqlaridir. Islom dinida buyruq va taqiqlaridan asosiy maqsad – mana shu qadriyatlarini himoya qilish, insonlarning tinch, osoyishta va baxtiyor hayot kechirishlarini ta'minlashdan iborat.

Islom oila va nikoh orqali nafs va naslni himoya qilishni ta'minlaydi va jamiyatning asosi oila bo'lganidek, oilaning asosi nikoh ekanini uqtiradi. Nikohsiz oila qurish joiz emas, chunki oila institutining ilk qadami ham, uning tamal toshi ham nikohdir.

Islomda nikoh inson zotining pok holda davom etishi va ko'payishini ta'minlash uchun buyurilgan bo'lib, fitratga va axloqqa zid bo'lgan, nasl-nasabga va ijtimoiy hayotga zarar keltiradigan zino va fohishalik harom qilingandir.

Zinoni taqiqlashlikning sabablaridan biri nasl-nasabni asrashga, himoya qilishga qaratilgan va Islomda erkak va ayolning nikohsiz munosabatlar karix sanaladi, yaqinlik esa harom qilgandir va Islom ularni man qiladi. Islom Shariatida zino og'ir jinoyat sanalib, qattiq jazolangani uchun unga olib boradigan barcha yo'llar to'silgandir.

Islom dini man qilgan xarom ishlarlardan biri bo'lgan zino gunohi kabiralardan bo'lib, Qur'oni Karimda Alloh taolo unga yaqinlashmaslikni buyurgan: "Va zinoga yaqinlashmanglar. Albatta, u fohisha ish va yomon yo'ldir³". Oyatda «zino qilmanglar» emas, balki «zinoga yaqinlashmanglar» deyilmoqda. Ya'ni, mo'minlarga zino qilish u yoqda tursin, unga yaqinlashishni o'zi ham xarom qilinmoqda. Shu sababdan, zinoga olib boruvchi har qanday vosita va yo'llardan uzoq bo'lishik lozim⁴.

Zinoning shaxs, oila va jamiyat uchun zararlari juda ko'p bo'lib, u tufayli oilalar buziladi, zinokor o'z joniga qasd qilishi mumkin yoki o'sha qilgan gunoxi sabab butunlay fahsh yo'lga kirib qolishi ham mumkin. Zino sababli janjallar, qotilliklar va tartibsizliklar sodir bo'ladi. Oxiratda esa zinoning jazosi qattiq, bir

³ Isro surasi. 17/32

⁴ Shayh Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Tafsiri hilol. Isro surasi 17/32



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

necha barobar ko'p bo'ladi. Qur'oni Karimda Alloh Taolo shunday deydi: "Ular Alloh bilan birga biror ilohga iltijo qilmaslar. Alloh harom qilgan jonni nohaqdan o'ldirmaslar. Kim ana shuni qilsa, uqubatga duchor bo'lur. Qiyomat kuni uning azobi bir necha barobar ko'paytirilur va u azobda hor bo'lib abadiy qolur."⁵

Allohga shirk keltirishlik ulkan zulmdir. Birovni nohaqdan o'ldiradigan odam Rohmanning suyuqli bandasi bo'la olmaydi. Zinoda ham moddiy, ham ma'naviy ravishda odam o'ldirish ruhi bor. Zinokorlar bola ko'rishdan qochadilar. Ular, zinodan bola bo'lib qolmasligiga urinadilar. Bu esa, o'ziga xos odam o'ldirishdir. Allohga shirk keltirsa, nohaqdan odam o'ldirsa va zino qilsa, gunohning uqubatiga duchor bo'ladi⁶.

Alloh Taolo: "Zinoga yaqinlashmanglar", dedi va zinoga olib keladigan barcha narsa Islom dini tomonidan harom qilindi. Masalan, ayollarning ochiq-sochiq, tor liboslar kiyishi yoki tashqari uchun ziynatlanishlari mumkin emas. Shuningdek, kino, televideniya, internet tarmoqlarida shahvatni qo'zg'atuvchi har xil behayo narsalar tomasha qilish joiz emas. Islom dini zinoni ham, uni keltirib chiqaruvchi unsurlarni ham man qiladi. Bugun ayrim gazeta va jurnallar ayollarning behayo tasvirlarini berib, pul ishlab topadi. Kino sanoatida ham ba'zi kinostudiyalar odobsiz, behayo filmlar ishlab chiqishmoqda va bu odobsizlik ularning kanallari va saytlarida ochiq-oydin ko'rsatilmoqda. Fahsh va zino kazinolar, tungi klublarda ham urchigani hechkimga sir emas. Bunday karix va harom ishlar, axloqni buzuvchi unsurlar davom etar ekan, bu jamiyatda axloq asta-sekin buziladi, odamlar bu axloqsiz narsalarga ko'nikadi va bu jozibadan o'zini himoya qilish qiyinlashadi. Bu esa o'z navbatida nasllar buzilishiga hamda kelajak avloddan hech qanday yaxshilik kelmasligiga olib keladi, haqiqiy ilohiy muhabbatga qiziqish yo'qoladi.

Keyingi yillarda kino va seriallarda nikohdan tashqaridagi ishqiy munosabatlar odatiy hol sifatida ko'rsatilib, jamiyatda bunday axloqsizlik normallashtirilmoqda. Yosh nasl ichida harom ishlarni ziynat sanab, zinoni yengillashtirishi bilan birga turli axloqsizliklarning tarqalishiga va ko'plab moddiy, ma'naviy kasalliklar va muammolarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun jamiyatga buzuq madaniyatlar ta'sirida kirib kelgan "flirt" tushunchasi aslan Islom dinining axloqiy tushunchasidan yiroq va rad qilingan narsadir. Flirt – bu ayol va erkakning bir-biriga moyilligini g'oyri mashru' ravishda ko'rsatish yoki bildirish bo'lib, uning oqibati benikoh birga bo'lish, sayohat qilish va zavqlanishga, nikohni kechiktirish va axloqiy buzilishlarga olib keladi. Shu sababdan ham Islomda nikohni kechiktirish bu ma'rifat emas, aksincha ma'rifat – bu nikohni tez amalga

⁵ Furqon surasi. 25/68-69

⁶ Shayh Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Tafsiiri hilol.Furqon surasi 25/68



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

oshirishlikdir. Islom dinida vaqti kelganda turmush qurishga da'vat etadi va bo'ydoq qolmaslikni tavsiya qiladi. Turli sabablarga ko'ra turmush qurmaganlarga yordam berish kerakligini ta'limot beradi. Chunki turmush qura olmaydigan yoki nikohni kechiktirgan erkak va ayollarning sharafligi, ezgu va ishonchli hayot kechirishi tabiatan juda qiyin kechadi.

Islomda naslni saqlab qolish uchun zino harom qilinganidek, boshqa jinsiy munosabatlar, masalan, gomoseksuallik va lesbiyanizm kabilar buzuvchiliklar ham qat'iy harom qilingandir. Bir jinsdagi odamlarning o'zaro ishqiy yoki jinsiy munosabatlari buzuvchilik va qat'iy man etilgan ishdir va bu Odam bolasining yaratilish maqsadiga, fitratga va tabiiy tamoyillarga ziddir. Qur'oni Karim ma'lum qilganidek, Lut qavmi mana shu yomon ishlar (gomoseksualizm) tufayli halok bo'lgan⁷.

Alloh Taolo Kalomida marhamat qiladi: "Ey iymon keltirganlar! O'zingizni va ahli ayolingizni yoqilg'isi odamlar toshdan bo'lgan o'tdan saqlang. Uning tepasida qo'pol, darg'azab farishtalar bo'lib, ular Allohning amriga isyon qilmaslar va nimaga buyurilsalar, shuni qilurlar⁸". Musulmon kishi avvalo to'g'ri e'tiqodga ega bo'lishi va tavhidni yaxshi bilish kerak; shirk, kufr, bid'at, xurofot, harom, gunoh, johil tafakkur va e'tiqod turmush tarzidan uzoq bo'lishi va solih amallarni bajarish kerak. Mo'min kishi ayoli va farzandlari bilan birga to'g'ri islomiy tushuncha va turmush tarziga ega bo'lishi, bu haqiqatlarni boshqalarga yetkazishi va shu yo'l bilan Allohning solih bandasi bo'lishga harakat qilishi lozim.

Islom dinida naslni himoya qilish borasida belgilangan chora-tadbirlarga e'tiborsiz bo'lish umuminsoniy qadriyatlar, xususan, nikohni ham yo'q bo'lib ketishiga hamda odamlarni maqsadsiz hayot kechirishlariga olib kelishini anglash qiyin emas.

Shariatning maqsadlaridan bo'lgan naslni muhofaza qilishda e'tibor berish kerak bo'lgan yana bir muhim jihat - bu yosh avlodning atrofi-muhitini sog'lom saqlashlikdir, ya'ni, yomon do'stlar, internet va zararli nashrlar, sigaretlar, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, qimor va fohishabozlik kabi tuzoqlarga duch kelishlaridan asrash.

Kelajak avlodni ana shunday xavf-xatarlardan asrashning eng samarali va qudratli qalqoni - sog'lom diniy ta'limdir. Ularga yoshiga va darajasiga ko'ra iymon va ibodat, harom va halol, haq va huquq, nafs va insof, go'zal odob-axloqni o'rgatishlik, ularni amalga oshirishda oila buyuklar o'rnak bo'lishimiz lozim.

⁷ Ankabut surasi. 29/28-31; A'rof surasi. 7/80-84; Qamar surasi. 54/34-39 oyatlar.

⁸ Tahrim Surasi. 66/6;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Islom dini aql, mulk, hayot, din va naslni himoya qilishga qattiq e'tibor beradi va bu qadriyatlarga zarar yetkazishni qat'iyman man etadi. Agar odamlar diniy bilimga ega bo'lmasalar, ichkilik, qimor, giyohvandlik, fohishalik, bezorilik, zo'rlash, o'g'irlik, g'iybat, tuhmat, yolg'on gapirish kabi axloqiy muammolar paydo bo'ladi. Shu bois farzandlarni asrab-avaylash, ularga diniy-axloqiy bilimlar berish, kelajak garovi bo'lgan avlodlarga ibratli o'rnak bo'lishlik lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yaxshi nasl yetishtirishlik uchun, avlodlarni Islom ta'limotiga asosan zararli odatlardan, yomon do'stlardan, harom narsalardan, zararli nashrlardan asrashlik kerak. Insonning yaratilishidan maqsad Allohga qullik qilish, ibodat qilishdir. Shaxs to'g'ri diniy e'tiqod, ibodat va yaxshi xulq-atvor orqali rivojlanadi va kamolga etadi va prinsipial, izchil, qat'iyatli, sabrli va kuchli shaxs shakllanadi. Shu tariqa inson o'ziga ham, jamiyatga ham foydali shaxs bo'lib yetishadi. Dunyo va oxiratda baxtli va osoyishta hayotga Islom diniga muvofiq yashash orqaligina erishish mumkin.